ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

Sulaymonova Guljaxon Nazirjon qizi

O'zbekiston Respublikasi

Bank-moliya akademiyasi magistranti

gujakhonsobirjonova@gmail.com

ISLOMIY MOLIYA INSTITUTLARINING KORPORATIV BOSHQARUV MODELI VA UNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada islomiy moliya institutlarining korporativ boshqaruv modeli, uning shariatga muvofiqlikni ta'minlovchi institutsional mexanizmlari hamda AAOIFI va IFSB kabi xalqaro standartlar asosidagi boshqaruv yondashuvlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda shariat kengashi (Shariah Supervisory Board), direktorlar kengashi, ichki nazorat, shariat auditi va oshkoralik kabi elementlarning islomiy moliya institutlari barqarorligi va ishonchliligidagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, O'zbekistonda islomiy moliya xizmatlarini joriy etish bo'yicha huquqiy asoslar, xususan Markaziy bankning 3536-son qarori bilan mikromoliya tashkilotlarida shariatga mos moliyalashtirish xizmatlarini yo'lga qo'yish tartibi hamda "islomiy darcha" amaliyotining shakllanishi baholanadi. Natijalarga ko'ra, O'zbekistonda islomiy moliya institutlari korporativ boshqaruvini rivojlantirish uchun dual yondashuv (islomiy darcha + alohida islom banklari), markaziy shariat kengashi, shariat auditi hamda xalqaro standartlarga mos prudensial nazoratni bosqichma-bosqich joriy etish optimal model sifatida asoslanadi.

Kalit so'zlar: islomiy moliya, korporativ boshqaruv, shariat kengashi, shariat auditi, AAOIFI, IFSB, islomiy darcha, mushoraka, mudaraba, murabaha, ijara, sukuk, takaful, O'zbekiston.

Abstract. This article analyzes the corporate governance model of Islamic financial institutions, focusing on institutional mechanisms ensuring Shariah compliance and governance approaches guided by international standards (AAOIFI and IFSB). The study discusses the roles of Shariah supervisory boards, boards of directors, internal control systems, Shariah audit, and transparency in strengthening institutional stability and stakeholder trust. It also evaluates Uzbekistan's legal and institutional readiness, including the Central Bank's Regulation No. 3536 allowing microfinance institutions to offer Shariah-compliant financing products and the gradual development of Islamic windows in practice. The paper argues that a dual approach (Islamic windows + dedicated Islamic banks), combined with a central Shariah board, Shariah audit mechanisms, and phased alignment with global governance standards, represents an optimal model for Uzbekistan.

Keywords: Islamic finance, corporate governance, Shariah board, Shariah audit, AAOIFI, IFSB, Islamic window, Musharaka, Mudaraba, Murabaha, Ijara, Sukuk, Takaful, Uzbekistan.

KIRISH

So'nggi yillarda islomiy moliya global moliya bozorida barqaror va ijtimoiy mas'uliyatli moliyalashtirish modeli sifatida jadal rivojlanmoqda. Islomiy moliyada moliyaviy munosabatlar ribo (foiz) taqiqlanishi, maysir (ortiqcha tavakkalchilik) va g'arar (noaniqlik) cheklanishi, real aktivlar bilan bog'liqlik hamda foyda-zararni adolatli taqsimlash tamoyillariga asoslanadi. Shu sababli islomiy moliya institutlarida korporativ boshqaruv nafaqat iqtisodiy samaradorlikni, balki shariatga muvofiqlikni ham kafolatlashi kerak.

O‘zbekistonda islom moliyasini joriy etish masalasi siyosiy va institutsional kun tartibida tobora muhim o‘rin egallab bormoqda. Davlat rahbari islom moliyaviy xizmatlarini joriy etishning huquqiy asoslarini yaratish zarurligini ta’kidlab, ushbu jarayonga xalqaro moliya institutlari ekspertlarini jalb qilish muhimligini qayd etgan [1]. Shuningdek, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida islom moliyasi mezonlarini amaliyotga joriy etish va huquqiy asoslarni shakllantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan [2].

Mazkur sharoitda islomiy moliya institutlarining aynan korporativ boshqaruv modeli (shariat kengashi, ichki nazorat, audit, oshkoralik, risk boshqaruvi)ni O‘zbekiston amaliyotiga moslashtirish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Adabiyotlar sharhi

Islomiy moliya institutlarida korporativ boshqaruv bo‘yicha xalqaro amaliyotda AAOIFI va IFSB standartlari asosiy metodologik manba hisoblanadi. AAOIFI shariat nazorati, korporativ boshqaruv va audit bo‘yicha standartlar orqali islomiy moliya institutlarida oshkoralik hamda muvofiqlik nazoratini kuchaytirishga xizmat qiladi [3]. IFSB esa prudensial nazorat, risk boshqaruvi va shariat governance tizimiga oid yo‘riqnomalar orqali islomiy moliya institutlarining barqarorligini ta’minlashga yo‘naltirilgan [4].

Ilmiy adabiyotlarda islomiy moliya institutlarida korporativ boshqaruvning farqli jihati sifatida shariat kengashining mustaqil nazorat instituti, risk va foydani sheriklik asosida taqsimlash hamda real sektor bilan uzviy bog‘liqlik qayd etiladi (Lewis & Algaoud; Iqbal & Mirakhor; Chapra & Ahmed). Mazkur yondashuv investorlar ishonchini oshirishi, spekulyativ amaliyotlarni cheklashi va moliyaviy intizomni kuchaytirishi ta’kidlanadi.

Mintaqaviy tajriba nuqtayi nazaridan, Malayziyada dual bank tizimi (an’anaviy + islomiy xizmatlar) va shariat maslahat kengashlari amaliyoti, Qozog‘istonda esa islom banklari faoliyati bo‘yicha huquqiy o‘zgartirishlar hamda mintaqaviy moliya markazi tajribasi islomiy moliyani joriy etishda institutsional model sifatida ko‘rib chiqiladi. O‘zbekiston amaliyotida esa islom moliyasi bo‘yicha normativ-huquqiy bazaning shakllanishi boshlangan bo‘lib, mikromoliya tashkilotlarida islomiy moliyalashtirish xizmatlarini tartibga soluvchi 3536-son qaror muhim qadamlardan biri hisoblanadi.

Tahlil va muhokama

So‘nggi yillarda islom moliyasi jahon moliya tizimining muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Ilmiy adabiyotlarda ushbu tizimning iqtisodiy barqarorlikka ta’siri va real sektorni moliyalashtirishdagi o‘rni keng o‘rganilgan. Masalan, G.R. Hanif va M. Iqbal o‘z tadqiqotlarida islomiy bank tizimi foizsiz moliyalashtirish tamoyiliga asoslanishi sababli iqtisodiyotda risklarni adolatli taqsimlash hamda moliyaviy inklyuziyani kengaytirishda muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydilar. Rodney Wilson esa islom moliyasi instrumentlari real iqtisodiyot bilan bevosita bog‘langanligini qayd etib, bu tizim moliyaviy operatsiyalarning spekulyativ xarakter kasb etishining oldini olishini ko‘rsatadi. Monzer Kahf o‘z ilmiy ishlarida islom moliyasining asosiy ustunligi sifatida risk va foydani taqsimlash tamoyillarini alohida ta’kidlab, bunday model iqtisodiy resurslarning samarali taqsimlanishiga xizmat qilishini asoslab beradi. Shu bilan birga, Timur Kuran islom moliyasini an’anaviy moliya tizimini to‘liq almashtiruvchi model sifatida emas, balki uni to‘ldiruvchi parallel moliyaviy tizim sifatida baholaydi.

Statistik ma’lumotlar ham ushbu tizimning jadal rivojlanayotganini ko‘rsatadi. So‘nggi yillarda jahon bo‘yicha islom moliyasi aktivlari bir necha trillion AQSH dollariga yetgan bo‘lib, ushbu sektorning o‘rtacha yillik o‘sish sur’ati 10–15 foizni tashkil etmoqda. Global islom moliya sektorida banklar yetakchi o‘rinni egallab, umumiy aktivlarning qariyb 70 foizdan ortig‘ini tashkil etadi. Bu esa islomiy bank tizimi jahon moliya bozorida muhim institut sifatida shakllanib borayotganini ko‘rsatadi. Islom moliyasi tizimining barqarorligi ayniqsa 2008-yilgi global moliyaviy inqiroz davrida yaqqol namoyon bo‘lgan. Ayrim tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki,

mazkur davrda islom banklari aktivlari o‘sishda davom etgan. Buning asosiy sababi sifatida moliyaviy operatsiyalarning real aktivlarga asoslanishi hamda spekulyativ operatsiyalarning cheklanishi ko‘rsatiladi.

O‘zbekiston sharoitida ham islom moliyasini rivojlantirish uchun muayyan iqtisodiy va ijtimoiy omillar mavjud. Avvalo, mamlakat aholisining asosiy qismi musulmonlardan iborat bo‘lib, foizsiz moliyaviy xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojning mavjudligi kuzatilmoqda. Shu bilan birga, iqtisodiyotda bank tizimiga jalb qilinmagan bo‘sh moliyaviy resurslar ham mavjud bo‘lib, ularni iqtisodiy aylanishga jalb etishda islom moliyasi instrumentlari muhim rol o‘ynashi mumkin. So‘nggi yillarda mamlakatimizda ushbu yo‘nalishda muhim normativ-huquqiy asoslar ham shakllanib bormoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-dekabrdagi PQ-3439-son qarori xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish hamda muqobil moliyaviy instrumentlarni joriy etish uchun muhim huquqiy asos yaratdi. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-maydagi 428-son qarori Islom taraqqiyot banki guruhi bilan hamkorlikni rivojlantirish va mamlakat iqtisodiyotiga islom moliyasi asosidagi investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirdi. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2024-yil 26-iyuldagi 3536-son qarori mikromoliya tashkilotlariga murabaha, mushoraka, muzoraba, ijara hamda salam kabi islomiy moliyalashtirish instrumentlaridan foydalanishga ruxsat berib, mamlakatimizda islom moliyasi xizmatlarini amaliyotga joriy etishning muhim bosqichi bo‘ldi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda islom moliyasi tamoyillariga yaqin bo‘lgan moliyaviy xizmatlarni taklif etuvchi ayrim moliyaviy platformalar ham shakllanib bormoqda. Jumladan, investorlar mablag‘larini real iqtisodiy loyihalarga yo‘naltirishga qaratilgan investitsion platformalar faoliyati kuzatilmoqda. Shunday platformalardan biri sifatida Iman Invest investitsion platformasini misol sifatida keltirish mumkin. Mazkur platforma investorlarning mablag‘larini savdo operatsiyalari yoki real loyihalarga yo‘naltirish orqali foyda olish modeliga asoslangan bo‘lib, bunda foyda sheriklik tamoyili asosida taqsimlanadi. Ushbu model an’anaviy foizli kreditlash tizimidan farqli ravishda savdo operatsiyalari yoki real aktivlarga asoslangan moliyalashtirish mexanizmlariga tayanadi. Bunday platformalarning paydo bo‘lishi mamlakatimizda foizsiz moliyaviy xizmatlarga bo‘lgan ehtiyoj mavjudligini ko‘rsatadi.

Muallifning fikricha, ilmiy adabiyotlar tahlili hamda mavjud statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, islom moliyasi tizimi iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni diversifikatsiya qilish hamda investitsiya jarayonlarini faollashtirish uchun muhim instrument bo‘lishi mumkin. O‘zbekiston sharoitida esa ushbu tizimni joriy etishda bosqichma-bosqich yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Xususan, xalqaro tajribada keng qo‘llanilayotgan dual bank tizimi modeli an’anaviy bank tizimini saqlab qolgan holda, banklar tarkibida islomiy moliyaviy xizmatlarni joriy etish imkonini beradi. Natijada moliya tizimida raqobat kuchayadi, moliyaviy xizmatlar diversifikatsiyasi ta’minlanadi hamda iqtisodiyotga qo‘shimcha investitsiyalar jalb etish imkoniyati kengayadi. Shu sababli O‘zbekistonda ham islom moliyasini rivojlantirishda normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, mutaxassislar tayyorlash hamda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

1-jadval.

Islomiy moliya institutlari aktivlari va asosiy ko‘rsatkichlarining global o‘sish dinamikasi (2023–2025 yy.)

№	Ko‘rsatkichlar	2023 yil	2024 yil	2025 yil (prognoz)
1	Global islomiy moliya aktivlari	3,6 trln AQSH	3,9 trln AQSH	4,2 trln AQSH

		dollari	dollari	dollari
2	Islomiy bank aktivlari ulushi	70 %	71 %	72 %
3	Sukuk bozori hajmi	850 mlrd AQSH dollari	900 mlrd AQSH dollari	1,0 trln AQSH dollari
4	Takaful (islomiy sug‘urta) aktivlari	55 mlrd AQSH dollari	60 mlrd AQSH dollari	65 mlrd AQSH dollari
5	Islomiy investitsiya fondlari aktivlari	180 mlrd AQSH dollari	200 mlrd AQSH dollari	220 mlrd AQSH dollari
6	Islomiy moliya faoliyat yuritayotgan davlatlar soni	80+ davlat	80+ davlat	85 ga yaqin
7	Eng yirik mintaqa ulushi (Yaqin Sharq + Osiyo)	90 %	90 %	90 %
8	Raqamli islomiy bank xizmatlari ulushi	35 %	40 %	45 %

Manba: Islomiy moliya bo‘yicha xalqaro tashkilotlar (IFSB, AAOIFI, ICD) yillik hisobotlari asosida umumlashtirilib tuzilgan.


Keltirilgan jadvalda 2023–2025 yillarda global islomiy moliya institutlari aktivlarining o‘sish dinamikasi aks ettirilgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, global islomiy moliya aktivlari 2023 yilda 3,6 trillion AQSH dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2024 yilda ushbu ko‘rsatkich 3,9 trillion dollarga yetgan va 2025 yilga kelib 4,2 trillion dollarga yetishi prognoz qilinmoqda. Bu esa qisqa muddat ichida islomiy moliya sektorining barqaror o‘sish tendensiyasiga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, islomiy banklar sektorning eng yirik qismini tashkil etib, umumiy aktivlarning 70–72 foizi aynan bank tizimiga to‘g‘ri kelmoqda. Bu holat islomiy banklar moliyaviy xizmatlar bozorida yetakchi o‘rin egallayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, sukuk bozori hajmi ham barqaror o‘sib bormoqda. Agar 2023 yilda sukuk bozori hajmi 850 milliard AQSH dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2024 yilda 900 milliard dollarga yetgan va 2025 yilga kelib 1 trillion dollarga yaqinlashishi prognoz qilinmoqda.

Takaful, ya’ni islomiy sug‘urta sektori ham o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lib, uning aktivlari 2023 yildagi 55 milliard dollardan 2025 yilga kelib 65 milliard dollarga yetishi kutilmoqda. Shuningdek, islomiy investitsiya fondlari aktivlari ham 180 milliard dollardan 220 milliard dollargacha oshishi prognoz qilinmoqda.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, islomiy moliya xizmatlari faoliyat yuritayotgan davlatlar soni ham ortib bormoqda. 2023–2024 yillarda 80 dan ortiq davlatda islomiy moliya xizmatlari mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 2025 yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 85 ga yaqinlashishi kutilmoqda. Shu bilan birga, sektor aktivlarining asosiy qismi Yaqin Sharq va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlariga to‘g‘ri kelib, umumiy bozorning qariyb 90 foizini tashkil etmoqda.

Muallifning fikricha, jadvalda keltirilgan statistik ma’lumotlar islomiy moliya tizimining global moliya bozorida barqaror rivojlanayotganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, sukuk bozori va investitsiya fondlari hajmining ortib borishi investorlar tomonidan shariatga mos moliyalashtirish instrumentlariga bo‘lgan qiziqish ortib borayotganini bildiradi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston moliya tizimi uchun ham ushbu sektor muhim imkoniyatlar yaratishi mumkin. Agar mamlakatimizda islomiy moliya instrumentlari bosqichma-bosqich joriy etilsa, bu moliya bozorini diversifikatsiya qilish, investitsiya oqimini oshirish hamda yangi moliyaviy xizmatlar turlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.



1-rasm. 2023–2025 yillarda global islomiy moliya aktivlarining o‘sish dinamikasi

Manba: Islomiy moliya xizmatlari kengashi (IFSB), AAOIFI standartlari va islomiy banklar faoliyati bo‘yicha xalqaro yillik hisobotlar asosida tuzilgan.

Diagrammada 2023–2025 yillar davomida global islomiy moliya aktivlarining o‘sish dinamikasi aks ettirilgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, 2023 yilda global islomiy moliya aktivlari 3,6 trillion AQSH dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2024 yilda ushbu ko‘rsatkich 3,9 trillion dollarga yetgan. 2025 yilga kelib esa islomiy moliya aktivlari hajmi 4,2 trillion AQSH dollariga yetishi prognoz qilinmoqda. Bu esa qisqa muddat ichida sektor hajmi qariyb 600 milliard dollarga oshayotganini ko‘rsatadi.

Mazkur o‘sish, avvalo, islomiy banklar aktivlarining kengayishi hamda sukuk bozorining rivojlanishi bilan izohlanadi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, global islomiy moliya aktivlarining asosiy qismi aynan bank sektoriga to‘g‘ri kelib, umumiy aktivlarning qariyb 70–72 foizini tashkil etadi. Shu bilan birga, sukuk instrumentlarining keng qo‘llanilishi ham sektor rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda.

Diagrammada aks etgan dinamik o‘sish islomiy moliya tizimining global moliya bozorida barqaror rivojlanayotganini ko‘rsatadi. Muallifning fikricha, ushbu tendensiya shariatga mos moliyalashtirish vositalariga bo‘lgan talabning ortib borayotganini tasdiqlaydi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston moliya tizimida ham islomiy moliya instrumentlarini bosqichma-bosqich joriy etish mamlakat moliya bozorini diversifikatsiya qilish, investitsiyalar hajmini oshirish hamda yangi moliyaviy xizmatlar turlarini rivojlantirish uchun muhim imkoniyatlar yaratishi mumkin.

Takliflar:

1. O‘zbekistonda islomiy moliya institutlari faoliyatini tartibga soluvchi alohida qonunchilik bazasini shakllantirish va xalqaro standartlarga mos normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish zarur.
2. Tijorat banklari tarkibida yoki alohida moliya institutlari sifatida shariat kengashlarini tashkil etish hamda ularning mustaqil faoliyat yuritishini ta’minlash maqsadga muvofiq.

3. Markaziy bank huzurida milliy darajadagi Markaziy shariat kengashini tashkil etish orqali yagona metodologiya va standartlarni joriy etish lozim.
4. Islomiy moliya instrumentlari — sukuk, mudaraba, musharaka, ijara kabi moliyalashtirish vositalarini joriy etish va ularning muomalasini rivojlantirish zarur.
5. Islomiy moliya sohasida malakali mutaxassislar tayyorlash, oliy ta'lim muassasalarida maxsus o'quv dasturlarini joriy etish hamda xalqaro tajriba almashinuvini kengaytirish muhim hisoblanadi.
6. Shariat auditi va ichki nazorat tizimini yo'lga qo'yish orqali operatsiyalarning shariat tamoyillariga muvofiqligini doimiy monitoring qilish zarur.
7. Xorijiy islomiy moliya institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish, qo'shma loyihalar va investitsiya dasturlarini amalga oshirish orqali tajriba va kapital jalb etish mumkin.
8. Aholi va tadbirkorlar o'rtasida islomiy moliya mahsulotlari haqida tushuntirish ishlarini olib borish hamda moliyaviy savodxonlikni oshirish ushbu tizimning muvaffaqiyatli joriy etilishiga xizmat qiladi.

Ushbu chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish O'zbekistonda islomiy moliya institutlarining samarali faoliyat yuritishi, investitsiyalar hajmining oshishi hamda moliya tizimining barqaror va diversifikatsiyalangan rivojlanishini ta'minlaydi.

Manbalar ro'yxati:

1. Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions (AAOIFI). Governance Standards for Islamic Financial Institutions (GSIFI). — Manama: AAOIFI, 2024. AAOIFI islomiy moliya institutlari uchun korporativ boshqaruv, shariat nazorati va audit bo'yicha xalqaro standartlarni ishlab chiqadi.
2. AAOIFI. Shari'a Supervisory Board: Appointment, Composition and Report (Governance Standard No. 1). — Manama: AAOIFI. Mazkur standart shariat kengashining tuzilishi, vakolatlari va hisobot berish tartibini belgilaydi.
3. Islamic Financial Services Board (IFSB).
Guiding Principles on Shariah Governance Systems for Institutions Offering Islamic Financial Services. — Kuala Lumpur: IFSB.
4. OECD. G20/OECD Principles of Corporate Governance. — Paris: OECD Publishing, 2015.
5. Bank for International Settlements (BIS). Principles for Financial Market Infrastructures. — Basel: BIS, 2012.
6. Hasan Z. Shariah Governance in Islamic Banks. — Edinburgh: Edinburgh University Press.
7. Lewis M. K., Algaoud L. M. Islamic Banking**.** — Cheltenham: Edward Elgar Publishing.
8. Iqbal Z., Mirakhor A. An Introduction to Islamic Finance: Theory and Practice. — Singapore: Wiley.
9. Chapra M. U., Ahmed H. Corporate Governance in Islamic Financial Institutions. — Jeddah: Islamic Development Bank / IRTI.
10. Dusuki A. W. Islamic Financial System: Principles and Operations. — Kuala Lumpur: International Shari'ah Research Academy (ISRA).